



Xalq so'zi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 5-may, № 89 (9260)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TASHABBUSLAR AMALIY NATIJALARGA AYLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig'ilishi tadbirlarida qatnashish uchun 3-4-may kunlari Samarqandda bo'ldi.



Davlatimiz rahbari 3-may kuni Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Masato Kanda boshchiligidagi delegatsiyani, shuningdek, bir qator davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlarini qabul qildi.

Mazkur uchrashuvlarda O'zbekistonning Osiyo taraqqiyot banki

va boshqa xalqaro moliya institutlari, xorijiy davlatlar va nufuzli kompaniyalar bilan iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorligining bugungi holati va istiqbollari muhokama qilindi.

Xususan, sammit doirasida O'zbekiston va Osiyo taraqqiyot banki o'rtasida 2030-yilgacha mo'ljallangan

yangi sheriklik dasturi imzolangan, unga kiritilgan umumiy qiymati 12,5 milliard dollarlik loyihalarni o'z vaqtida va samarali amalga oshirish muhimligi ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 4-may kuni Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar

kengashi 59-yillik yig'ilishining ochilish marosimida ishtirok etdi.

"Taraqqiyot chorahalari: mintaqaning o'zaro bog'liq kelajagini ilgari surish" shiori ostida o'tkazilayotgan forumda 100 dan ortiq mamlakatlardan 4 mingdan ziyod ekspertlar, shuningdek, xorijiy hukumatlar, xalqaro moliya

tashkilotlari, yetakchi banklar va kompaniyalar vakillari ishtirok etmoqda.

Kun tartibidan raqamli va "yashil" transformatsiya, iqlim barqarorligi, ishlab chiqarish ta'minoti zanjirlarini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va boshqa masalalar o'rin olgan.

Davlatimiz rahbari tadbirda nutq so'zlab, bunday nufuzli anjumanning yurtimizda o'tkazilayotgani O'zbekistonga g'urur va iftixor bag'ishlashini ta'kidladi.

Prezidentimiz buyuk tarix va yorqin kelajakni o'zida mujassam etgan Yangi O'zbekiston endilikda xalqaro miqyosdagi dolzarb masalalar muhokama qilinadigan yirik maskanga aylanib borayotganini qayd etdi.

O'zbekiston yetakchisi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijalariga batafsil to'xtalib o'tdi. So'nggi yillarda iqtisodiyotimizga 150 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritilib, minglab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Bu davrda tovar va xizmatlar eksporti 3 karra o'sdi, milliy iqtisodiyot hajmi esa 50 milliarddan 147 milliard dollarga yetdi.

2020-yildan buyon O'zbekiston suveren kredit reytinglarida o'z o'rnini izchil oshirib bormoqda. Iqtisodiy erkinlik indeksida joriy yil yurtimiz 14 pog'ona yuqorilab, ilk bor "iqtisodiyoti mo'tadil erkin" davlatlar qatoridan joy oldi.

Global beqarorlik sharoitida ham iqtisodiyotimiz birinchi chorak yakuni bo'yicha 8,7 foizli o'sishga erishdi.

Eng muhimi, islohotlarimizda har bir oila, har bir insonning kundalik hayotini yaxshilashga asosiy e'tiborni qaratdik. Biz o'tgan davrda 8,5 million ehtiyojmand aholi daromadini oshirib, kambag'allik darajasini qariyb 35 foizdan bugungi kunda 5,8 foizga tushirishga erishdik, – dedi Prezidentimiz.

O'zbekiston oxirgi o'n yilda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda eng katta ijobiy o'zgarish qilgan beshta davlatdan biri bo'ldi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVNING OSIYO TARAQQIYOT BANKI BOSHQARUVCHILAR KENGASHINING YILLIK YIG'ILISHIDAGI NUTQI

Hurmatli Masato Kanda Janoblari!

Hurmatli bank boshqaruvchilari!

Xonimlar va janoblari!

Sizlarni Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig'ilishida ko'rib turganimdan behad mamnunman. Bunday nufuzli anjumanning yurtimizda o'tkazilayotgani bizga albatta g'urur va savdo yo'llari tutashgan.

Bir necha ming yillik tarixga ega, Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan diyorimiz qadimdan Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni bog'lovchi markaz bo'lib kelgan. Bu yerda azaldan dunyo tamadduni, ilm-fan va savdo yo'llari tutashgan.

Buyuk tarix va yorqin kelajakni o'zida mujassam etgan Yangi O'zbekiston endilikda xalqaro miqyosdagi dolzarb masalalar muhokama etiladigan yirik maskanga aylanib bormoqda. Ishonchim komilki, Samarqand anjumani ilg'or fikr va yangi tashabbuslarni ilgari surishga, muhim qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonga xush kelibsiz!

Aziz mehmonlar!

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti mutlaqo yangi rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Biz 2016-yildan buyon iqtisodiyotni erkinlashtirish, investorlar uchun jozibador muhit yaratish, global qo'shilgan qiymat zanjirida faol qatnashish, hududlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini tubdan yangilash, aholi turmush sharoitini yaxshilash bo'yicha katta islohotlarni olib boryapmiz.

Tarixan qisqa vaqt ichida mehnatkash va bunyodkor xalqimiz bilan murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tdik. So'nggi yillarda iqtisodiyotimizga 150 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritilib, minglab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Birgina energetika sohasida 35 milliard dollarlik investitsiya loyihalari hisobiga elektr ishlab chiqarishni 1,5 barobar oshirib, 87 milliard kilovatt-soatga yetkazdik. Bu davrda tovar va xizmatlar eksporti 3 karra o'sdi, iqtisodiyotimiz hajmi esa 50 milliard dollardan 147 milliard dollarga yetdi.

Bunday ijobiy natijalar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e'tirof etilmoqda. 2020-yildan buyon O'zbekiston suveren kredit reytinglarida o'z o'rnini barqaror oshirib bormoqda. Iqtisodiy erkinlik indeksida bu yil yurtimiz 14 pog'ona yuqorilab, ilk bor "iqtisodiyoti mo'tadil erkin" davlatlar qatoridan joy oldi. Global beqarorlik sharoitida ham iqtisodiyotimiz birinchi chorak yakuni bo'yicha 8,7 foizli o'sishga erishdi.

Eng muhimi, islohotlarimizda har bir oila, har bir insonning kundalik hayotini yaxshilashga asosiy e'tiborni qaratdik. Biz o'tgan davrda 8,5 million ehtiyojmand aholi daromadini oshirib, kambag'allik darajasini qariyb 35 foizdan bugungi kunda 5,8 foizga tushirishga erishdik. O'zbekiston oxirgi o'n yilda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda eng katta ijobiy o'zgarish qilgan beshta davlatdan biri bo'ldi.

Biz 2030-yilga qadar O'zbekistonda barcha sohalarni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish orqali iqtisodiyot hajmini 240 milliard dollardan oshirish niyatidamiz. Natijada daromadi o'rtachadan yuqori davlatlar

qatoriga kirishni hamda kambag'allikka to'liq barham berishni maqsad qilganmiz.

Yaqin kunlarda 13 ta strategik yirik korxonalar aktivlarini o'z ichiga olgan Milliy investitsiya jamg'armasining 30 foiz ulushini xalqaro fond bozoriga chiqaramiz. Aminmanki, bunday muhim qadam hamkorlarimizning yurtimiz investitsiya muhitiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Qadrlif do'stlar!

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarda Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining o'rnini alohida e'tirof etamiz. Ishonchli strategik sherigimizga aylangan Bank bilan hozirgi kunga qadar qariyb 16 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirmoqdami. Ayniqsa, Osiyo taraqqiyot banki mamlakatimizdagi qayta tiklanuvchi energetika, qishloqlarda uy-joy qurilishi va Markaziy Osiyoda iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlarida ilk kunlardan yelkadosh bo'lganini yuksak qadrlaymiz.

(Davomi 2-betda).

O'ZBEKISTONDA UZOQ MUDDATLI, O'ZARO MANFAATLI VA BARQAROR HAMKORLIK QADRLANADI

Samarqandda Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig'ilishi tadbirlari bo'lib o'tmoqda. Davlatimiz rahbari tadbirning ochilish marosimida nutq so'zladi. Xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Xususan, yig'ilish doirasida "ACWA" kompaniyasi rahbari Muhammad Abunayyan boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Unda sheriklik aloqalarini kengaytirish va qo'shma loyihalarni jadallashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuvdan so'ng "ACWA" kompaniyasi rahbari Muhammad ABUNAYYANning fikrlari bilan qiziqdik.

– Avvalo, shuni alohida aytishim kerakki, o'z yurtimdek bo'lib qolgan O'zbekistonda ekanimdan xursandman. Bu yerga har kelishim o'ziga xos tuyg'u bag'ishlaydi, shu lahzalarni intilq bilan kutaman, – dedi Muhammad Abunayyan. – Ushbu imkoniyat uchun minnatdorman. O'zbekistonga har safar kelganida Prezident Janobi Oliyarlari uchrashuvga taklif qilib, yuksak hurmat ko'rsatadilar. Bu men uchun katta sharaf.

Har gal u kishi bilan uchrashish, Saudiya – O'zbekiston kengashi doirasida turli sohalarga sarmoya jalb etishni kengaytirishga qaratilgan ulkan maqsadlar haqida ehtishot men uchun katta mamnuniyatdir. Shu bilan birga, ushbu sarmoyalar qay darajada amalga oshirilayotganini ham birgalikda ko'rib chiqamiz.

Janobi Oliyarlari barcha jarayonlardan doimo xabardor. U kishi har bir loyihaning holati haqida so'raydi. Jarayonni tezlashtirish va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan barcha yordamni ta'minlaydi. Ularning tashabbuslari va amalga oshirayotgan islohotlari ushbu sarmoyalarning muvaffaqiyatli amalga oshishiga mustahkam zamin yaratib kelmoqda.

Bu sarmoyalar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Har bir uchrashuvda biz, avvalo, amalga oshirilgan ishlarga baho beramiz. Shu bilan birga, kelgusida O'zbekistonga qanday yangi sarmoyalarni olib kiritish masalasini muhokama qilamiz.

Shuningdek, Janobi Oliyarlari kompaniyamizning turli hududlarda, turli texnologiyalar va yechimlar asosida amalga oshirayotgan barcha loyihalarini ham shaxsan kuzatib bormoqda.

Aytish joizki, u kishi O'zbekistonning strategik rivojlanish yo'lini juda erta belgilab berdi. Xususan, "yashil" energetika, energiya almashinuvi va energetik xavfsizlik masalalariga o'z vaqtida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Prezidenti boshqa ko'plab davlatlar hali bu masalalarga to'liq e'tibor qaratmasidan oqib ushbu yo'nalishlarda aniq va uzoqni ko'zlagan maqsadlarni belgilab berdi. Qayta tiklanadigan va "yashil" energiya ulushini oshirish bo'yicha qat'iy yondashuv shakllandi.

Eng muhimi, bu loyihalar faqat texnologiya nuqtayi nazaridan emas, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy ta'sir jihatidan ham puxta o'ylangan. Bu esa samaradorlikni ta'minlaydi, tannarxni optimallashtiradi va barqaror natijaga olib keladi.

Uchrashuv

Sheriklik istiqbollari yuzasidan fikr almashildi

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodik Safoyev Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi a'zosi Bok Kivang boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqot davomida O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlari izchil rivojlanib borayotgani, ikki mamlakat rahbarlari darajasida yo'lga qo'yilgan ochiq va samarali muloqot barcha sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilayotgani ta'kidlandi.

Uchrashuvda parlamentlar-aro aloqani yanada faollashtirish, qo'mitalar va hamkorlik bo'yicha parlamentlar-aro

guruhlar faoliyatini kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, qonun ijodkorligi, parlament nazorati, hududlararo sheriklik, yosh parlament a'zolari almashinuvi kabi yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish muhimligi qayd etildi. Shuningdek, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-logistika, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniy-gumanitar va turizm sohalaridagi hamkorlik istiqbollari yuzasidan fikr almashildi.

"Xalq so'zi".

Fraksiyalar hayoti

Deputatlar munozaralarda qanday masalalarni ko'tardi?

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqe'larga e'tibor qaratildi. Shuningdek, quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Texnik tartibga solish sohasi takomillashtirilmoqda

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Chexiya Respublikasi Bosh vazirining mamlakatimizga rasmiy tashrifining yakunlari haqida so'z yuritildi.

Deputatlar ushbu tashrif nafaqat

ikki davlat o'rtasidagi sheriklikni, balki Yevropa davlatlarining Markaziy Osiyodagi ishtiroki kengayib borayotganini ko'rsatgani va O'zbekiston – Chexiya munosabatlari tarixida sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berganini qayd etdi. Davlatlar o'rtasidagi hamkorlik nafaqat ikki mamlakat, balki butun mintaqa barqarorligi va taraqqiyoti uchun xizmat qilishi ta'kidlandi.

Fraksiya a'zolari texnik tartibga

solish sohasini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini atroflicha muhokama qilishdi. Ushbu qonun loyihasi sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda milliy tizimni xalqaro standartlarga moslashtirishni nazarda tutadi.

Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida", "Standartlashtirish to'g'risida", "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida" hamda "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risida"gi qonunlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.



OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OSIYO TARAQQIYOT BANKI BOSHQARUVCHILAR KENGASHINING YILLIK YIGʻILISHIDAGI NUTQI

[\(Davomi. Boshlanishi 1-betda\).](#)

Fursatdan foydalanib, bizni doimo qoʻllab-quvvatlab kelayotgani uchun Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Masato Kanda janoblariга hamda Bank Boshqaruvchilariga shaxsan oʻzim va butun xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildiraman.

Shu bilan birga, yaqin hamkorlik uchun Jahon banki, Xalqaro valyuta jamgʻarmasi, Islom taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro moliya institutlari rahbariyatiga, shuningdek, barcha xorijiy sheriklarimizga alohida tashakkur izhor etaman.

Hurmatli yigʻilish ishtirokchilari!

Biz Osiyo taraqqiyot banki bilan kambagʻallikni qisqartirish, inson kapitalini rivojlantirish, zamonaviy infratuzilma barpo etish kabi muhim yoʻnalishlarda yaqin hamkorlikni yanada kengaytirish boʻyicha aniq rejalarini belgilab oldik. Kuni kecha Bank bilan 12 milliard dollarlik yangi hamkorlik dasturini imzoladik.

Barchangiz yaxshi xabardorsiz, bugungi tahlikali zamonda jahon iqtisodiyotida murakkab oʻzgarishlar roʻy bermoqda, yangi texnologiyalar jadal kirib kelyapti. Barqaror taraqqiyotni taʼminlash uchun Bank bilan hamkorlikda yangi mexanizm va taʼsirchan yondashuvlarni joriy etishni davrning oʻzi bizdan talab etmoqda.

Birinchidan, bugun raqamli texnologiya va sunʼiy intellekt deyarli barcha sohalarni mutlaqo yangi formatga olib chiqmoqda.

Jahon savdo tashkiloti prognozlariga koʻra, 2040-yilga borib sunʼiy intellekt hisobiga xalqaro savdo aylanmasi qoʻshimcha 40 foizga oshadi.

Biz axborot texnologiyalarini rivojlantirishga jiddiy kirishganimiz. Oʻzbekistonda innovatsiya va bilimlarga asoslangan Sunʼiy intellekt xabini tashkil qilishni boshladik. Iqtisodiyot tarmoqlarida 200 dan ortiq sunʼiy intellekt loyihalari ustida ishlayapmiz. Hududlarda data-markazlar, super kompyuterlar va sunʼiy intellekt laboratoriyalarini koʻpaytirish, "Besh million sunʼiy intellekt yetakchilari"ni tayyorlash boʻyicha dasturlarni amalga oshiryapmiz.

Bu yoʻnalishlarda Osiyo taraqqiyot banki hamda AQSH, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoydagi hamkorlarimiz bizga yaqindan yordam berayotganini alohida taʼkidlab oʻtmoqchiman.

Albatta, taʼlim, tibbiyot, suv xoʻjaligi, ekologiya, oziq-ovqat xavfsizligi kabi aholining birlamchi ehtiyoji uchun eng zarur boʻlgan yoʻnalishlarda ham ochiq sunʼiy intellekt modellaridan foydalanish talab etilmoqda.

Buning uchun Osiyo taraqqiyot banki shafeligida Rivojlanayotgan

mamlakatlarda sunʼiy intellekt koʻlamini oshirish boʻyicha alohida dastur ishlab chiqishni taklif etamiz.

Shuningdek, Bankning "Osiyo uchun raqamli magistral" tashabbusiga qoʻshilishimizni maʼlum qilamiz hamda Toshkentda uning mintaqaviy muvofiqlashtirish markazini ochish taklifini ilgari suramiz.

Ikkinchidan, raqamli texnologiya va sunʼiy intellektning rivojlanishi, oʻz navbatida, energiya resurslariga boʻlgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Xalqaro energetika agentligi tahlillariga koʻra, 2030-yilga borib data-markazlarning elektr energiyasiga boʻlgan talabi hozirgidan 2-3 karra oshadi. Bunday sharoitda investorlarga arzon, ishonchli va "yashil" energiya taklif qilgan davlatlarga global bozorda raqobatbardosh boʻla oladi.

Biz bu borada dunyoning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda 5 ming 600 megavattli yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarini ishga tushirib, generatsiyada "yashil" energiya ulushini 30 foizga yetkazdik. 2030-yilga borib bu koʻrsatkichni 54 foizga olib chiqishni reja qilganimiz.

Umuman olganda, mintaqamizning qayta tiklanadigan energiya generatsiyasi boʻyicha juda katta salohiyati bor. Toza energiya eksportini kengaytirish uchun Markaziy Osiyo – Yevropa "yashil" energetika koridorini yaratishda Osiyo taraqqiyot banki koʻrsatayotgan yordamni minnatdorlik bilan taʼkidlaymiz. Mintaqa davlatlari Bank bilan hamkorlikda qisqa muddatlarda ushbu "energetik arteriya" loyihasini boshlashiga ishonamiz.

Uchinchidan, oʻzaro bogʻliq transport tizimi va logistika yoʻlaklari barqarorligini taʼminlash eng dolzarb masalaga aylanmoqda.

Jahondagi ziddiyatlar oqibatida logistika koridorlari oʻzgarishi hozirning oʻzida Markaziy Osiyo davlatlari uchun yuk tashish xarajatining 30 foizgacha oshishiga, yetkazib berish muddatlari esa bir necha hafta kechikishiga sabab boʻlmoqda.

Xabarigiz bor, Sharq va Gʻarbni bogʻlaydigan Xitoy – Qirgʻiziston – Oʻzbekiston temir yoʻli loyihasi boʻyicha qurilish ishlari boshlangan. Ushbu yangi transport yoʻlagi hisobiga butun mintaqaning tranzit salohiyati sezilarli darajada oshadi. Mahsulotlarni yetkazib berish muddati 10 kungacha qisqaradi, yiliga 15 million tonnagacha yuk tashish imkoniyati yaratiladi.

Bu borada Bankning Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturi doirasida "Raqamli bojxona va logistika alyansi"ni tashkil etishni taklif etamiz. Buning natijasida bojxona tartiblarini uygʻunlashtirish, hujjatlar aylanishini raqamlashtirish, chegara orqali yuk tashishlarni yengillashtirish imkoniyati yaratiladi.

Toʻrtinchidan, Bank ishtirokida

xususiy sektor bilan hamkorlikni yanada kuchaytirishdan manfaatdormiz.

Ayniqsa, hozirgi texnologiyalar asrida kritik minerallar uchun raqobat kun sayin avj olayotganini barchamiz koʻrib turibmiz. Xalqaro ekspertlarning xulosalariga koʻra, 2040-yilga borib sanoat uchun muhim minerallarga talab 6 barobar oshadi. Bu – yangi imkoniyat. Oʻzbekiston mis, volfram, molibden, magniy, grafit, vanadiy, titan va boshqa minerallarning katta zaxirasiga ega. Biz bu salohiyatni ishga solish maqsadida koreyalik hamkorlarimiz bilan R&D markazi faoliyatini yoʻlga qoʻydik. Toshkent va Samarqand viloyatlarida "Kelajak metallari texnoparki"ni bunyod etmoqdamiz. AQSH, Xitoy, Turkiya kabi davlatlarning yirik kompaniyalari bilan qiymati 1,6 milliard dollarlik 70 dan ziyod loyihalarni boshlaganimiz.

Biz nafaqat foydali minerallarni qazib olish, balki ularni chuqur qayta ishlash orqali iqtisodiyot rivojiga yangi turtki berishni maqsad qilganimiz. Osiyo taraqqiyot bankining "Kritik mineraldan – ishlab chiqarishga" dasturiga qoʻshilish va uning doirasida yuqori qoʻshimcha qiymatga ega boʻlgan loyihalarni amalga oshirishni taklif etamiz. Bunda geologiya-qidiruv ishlarida zamonaviy texnologiyalar va raqamli yechimlarni joriy qilish, qazib olish va qayta ishlash jarayonlariga ekologik standartlarni tatbiq etish, kritik mineralarni yetkazib berishning barqaror janjirlarini yaratish muhim deb hisoblaymiz.

Beshinchidan, iqlim oʻzgarishi va choʻllanish jarayonlari Markaziy Osiyo mamlakatlari taraqqiyoti uchun jiddiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Ekologik muammolar oqibatini yumshatish maqsadida besh yildan buyon "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 million tun koʻchat ekib kelyapmiz. Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektar yashil qoplamali himoya oʻrmonzorlarini yaratdik. Oʻzbekistonda 2030-yilgacha yashillik darajasini 30 foizga yetkazish boʻyicha katta marra olganimiz.

Ayni paytda Osiyo taraqqiyot banki ham 2030-yilgacha moʻljallangan iqlim sohasida Harakatlar rejasini samarali amalga oshirib kelmokda. Bank ajratayotgan yillik mablagʻlarning 50 foizdan kam boʻlmagan qismini iqlim loyihalarini moliyalashtirishga yoʻnaltirmoqda.

Oʻlaymanki, bunday ezgu saʼy-harakatlarni Bank va mintqa mamlakatlari bilan birgalikda roʻyobga chiqarsak, natijasi yanada yuqori boʻladi. Shu bois "Markaziy Osiyo yashil belbogʻi" mintaqaviy loyihasini amalga oshirishni taklif etamiz.

Oltinchidan, dunyodagi notinchlik tufayli millionlab turistlar xavfsiz yoʻnalishlarni qidirmoqda.

Markaziy Osiyo ziyorat, madaniy, gastronomik, etno, ekstremal, tibbiyot

kabi turizm yoʻnalishlarida katta salohiyatga ega. Bu sohaga alohida eʼtibor qaratib zarur infratuzilma, servis, viza va transport, eng muhimi, sayyohlar xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirdik. Buning hisobiga oʻn yil ichida Oʻzbekistonga xorijiy turistlar qoʻnimi 6 karra oshib, 12 million nafarga yetdi.

Yaqinda Toshkent shahrida ochilgan Markaziy Osiyoning ilm-fan va maʼnaviy xazinasini sifatida eʼtirof etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda barpo etilgan buyuk alloma Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi yurtimizning yangi durdonalariga aylandi. Bunday majmualar qoʻshni mamlakatlarda ham bunyod etilmoqda. Shu bois mintaqqa davlatlarini birlashtiradigan turistik makon – "Markaziy Osiyo turizm halqasi"ni yaratish tashabbusini ilgari suramiz. Qoʻshni davlatlar, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa hamkorlarimizni turizmni rivojlantirish boʻyicha loyihalar portfelini shakllantirib, birgalikda moliyalashtirishga chaqiramiz.

Yuqorida aytib oʻtilgan barcha taklif va tashabbuslarni biz Osiyo taraqqiyot banki bilan faqat suveren kreditlar doirasida emas, balki davlat-xususiy sheriklik, kafolat instrumentlari, aralash moliyalashtirish va xususiy kapitalni jalb etish orqali faol hamkorlikda amalga oshirishga tayyormiz. Shu munosabat bilan mintaqaviy loyihalar uchun Innovatsion moliyalashtirish platformasini shakllantirishni taklif etamiz.

Hurmatli Bank boshqaruvchilari!

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida roʻy berayotgan keskin oʻzgarishlar Osiyo taraqqiyot bankining keng mintaqamiz ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini taʼminlashdagi muhim oʻrnini yanada oshirmoqda. Bu borada biz Bank prezidenti, xalqaro moliya va iqtisodiy munosabatlar sohasida katta bilim va tajribaga ega boʻlgan Masato Kanda janoblarning olib borayotgan samarali islohotlarini toʻliq qoʻllab-quvvatlaymiz.

Qadriy yigʻilish ishtirokchilari!

Bugungi anjumanda dunyoning 100 dan ortiq davlati, xalqaro moliya tashkilotlari, yetakchi banklar va kompaniyalarning nufuzli ekspertlaridan iborat 4 mingdan ziyod vakillar qatnashmoqda.

Samarqand platformasida ilgari suriladigan muhim taklif va tashabbuslar kelgusida katta amaliy natijalarga, har bir kelishuv esa aniq va foydali loyihalarga aylanishga ishonaman.

Fursatdan foydalanib, barchangizni Yangi Oʻzbekistonning goʻzal tabiati, tarixiy obidalari, yurtimizning zamonaviy arxitektura qiyofasi bilan yaqindan tanishishga taklif qilaman.

Soʻzimizning yakunida, sizlarga mustahkam sogʻlik, masʼuliyatli faoliyatingizda yangi yutuq va omadlar tilayman.

TASHABBUSLAR AMALIY NATIJALARGA AYLANMOQDA

[\(Davomi. Boshlanishi 1-betda\).](#)

2030-yilga qadar barcha sohalarni texnologik va innovatsion oʻsish modeliga oʻtkazish orqali iqtisodiyot hajmini 240 milliard dollardan oshirish, daromadi oʻrtachadan yuqori davlatlar qatoriga kirish hamda kambagʻallikka toʻliq barham berish maqsad qilingan.

Prezidentimiz amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarda Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining oʻrnini alohida eʼtirof etdi. OTB bilan amalga oshirilgan va joriy qoʻshma loyihalar portfeli qariyb 16 milliard dollarga yetdi.

Davlatimiz rahbari Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Masato Kanda, Bank boshqaruvchilari hamda Jahon banki, Xalqaro valyuta jamgʻarmasi, Islom taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro moliya institutlari rahbariyatiga yaqin hamkorlik uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Prezidentimiz jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan murakkab oʻzgarishlar va yangi texnologiyalarning jadal rivojlanishi haqida soʻz yuritir ekan, barqaror rivojlanishni taʼminlash uchun Bank bilan hamkorlikda yangi mexanizm va taʼsirchan yondashuvlarni joriy etish zarurligini taʼkidladi.

Raqamli transformatsiya va sunʼiy intellektga alohida eʼtibor qaratildi. Yurtimizda Sunʼiy intellekt xabini yaratish boshlandi, hududlarda data markazlarni koʻpaytirish, super kompyuterlarni ishga tushirish va "Besh million sunʼiy intellekt yetakchilari"ni tayyorlash boʻyicha dasturlar amalga oshirilmokda.

– Taʼlim, tibbiyot, suv xoʻjaligi, ekologiya, oziq-ovqat xavfsizligi kabi aholining birlamchi ehtiyoji uchun eng zarur boʻlgan yoʻnalishlarda ham ochiq sunʼiy intellekt modellaridan foydalanish talab etilmoqda, – dedi davlatimiz rahbari.

Osiyo taraqqiyot banki shafeligida rivojlanayotgan mamlakatlarda sunʼiy intellekt koʻlamini oshirish boʻyicha alohida dastur ishlab chiqish taklif etildi. Oʻzbekiston bankning "Osiyo uchun raqamli magistral" tashabbusiga qoʻshilishga tayyorligini maʼlum qilib, Toshkentda uning mintaqaviy muvofiqlashtirish markazini ochish taklifini ilgari surdi.

"Yashil" energetikani rivojlantirish ustuvor yoʻnalish sifatida belgilandi. Dunyoning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda 5 ming 600 megavattli quvvatlar ishga tushirildi, 2030-yilga borib esa generatsiyada qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilmokda.

Osiyo taraqqiyot banki toza energiya eksportini kengaytirish uchun Markaziy Osiyo – Yevropa "yashil" energetika koridorini yaratishga koʻmaklashayotgani minnatdorlik bilan taʼkidlandi. Mintaqa davlatlari bank bilan hamkorlikda qisqa muddatlarda ushbu "energetik arteriya"

loyihasini boshlashiga ishonch bildirildi.

Keyingi dolzarb vazifa – transport tizimlarining oʻzaro bogʻliqligini va logistika yoʻlaklari barqarorligini taʼminlash.

Xalqaro logistikadagi yiqinchiliklar Xitoy – Qirgʻiziston – Oʻzbekiston temir yoʻlini qurishning ahamiyatini oshirmoqda. Mazkur loyiha yuklarni yetkazib berish muddatini 10 kungacha qisqartirish va butun mintaqqa tranzit salohiyatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Bankning Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturi (CAREC) doirasida "Raqamli bojxona va logistika alyansi"ni tashkil etish taklif etildi.

Muhim minerallar zaxiralari oʻzlashtirishda hamkorlik salohiyati alohida taʼkidlandi. Prezidentimiz qayd etganidek, Oʻzbekiston nafaqat foydali minerallarni qazib olish, balki ularni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qoʻshilgan qiymatga ega ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishni maqsad qilgan.

Oʻzbekiston yetakchisi yuqori qoʻshilgan qiymatga ega boʻlgan loyihalarni ilgari surish uchun Osiyo taraqqiyot bankining "Kritik mineraldan – ishlab chiqarishga" dasturiga qoʻshilish muhimligini taʼkidladi.

Shu bilan birga, iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashish muhim vazifa sifatida belgilandi. Orol dengizining qurigan tubida himoya oʻrmonzorlarini barpo etish boʻyicha milliy saʼy-harakatlarga qoʻshimcha ravishda "Markaziy Osiyo yashil belbogʻi" mintaqaviy loyihasini amalga oshirish taklif qilindi.

Mintaqaviy hamkorlik doirasida "Markaziy Osiyo turizm halqasi"ni yaratish tashabbusi ilgari surildi. Loyiha mintaqadagi noyob madaniy, ziyorat, gastronomik, etnografik va boshqa obyektlarni sayyohlar uchun yagona makonga birlashtirishga qaratilgan.

Bildirilgan barcha taklif va tashabbuslarni tizimli ilgari surish uchun OTBning loyihalarni moliyalashtirish boʻyicha keng imkoniyatlarini, jumladan, xususiy kapitalni safarbar qilish orqali toʻliq ishga solish zarurligi taʼkidlandi. Shu munosabat bilan mintaqaviy loyihalar uchun Innovatsion moliyalashtirish platformasini shakllantirish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida roʻy berayotgan keskin oʻzgarishlar sharoitida Osiyo taraqqiyot bankining keng mintaqamiz ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini taʼminlashdagi muhim oʻrni yanada oshayotganini taʼkidladi.

Yakunda Prezidentimiz Samarqand platformasida ilgari suriladigan muhim taklif va tashabbuslar kelgusida katta amaliy natijalarga, har bir kelishuv esa aniq va foydali loyihalarga aylanishiga ishonch bildirdi.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Samarqandga tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Gʻolib HASANOV,
Behruz XUDOYBERDIYEV,
OʻZA maxsus muxbirlari.

OʻZBEKISTONDA UZOQ MUDDATLI, OʻZARO MANFAATLI VA BARQAROR HAMKORLIK QADRLANADI

Aytish kerakki, bugungi kunda Oʻzbekistonning energiya siyosati koʻplab mamlakatlار uchun namuna boʻla oladi.

Bu jarayonda faqat taʼminot masalasi emas, balki toʻgʻri iqtisodiy yondashuv va ijtimoiy omillar, jumladan, mahalliy kadrlar tayyorlash ham hisobga olingan.

Janob Prezident inson kapitaliga alohida eʼtibor qaratadi. Mamlakatingizda yoshlarni yangi texnologiyalarga oʻqitish, ularni zamonaviy bilimlar bilan taʼminlash, mahalliy mutaxassislarni tayyorlash masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Qurilish, ekspluatatsiya va texnik xizmat koʻrsatish kabi jarayonlarda mahalliy kadrlarning ishtirokini taʼminlash, ularni oʻqitish va rivojlantirish boʻyicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Saudiya Arabistonida energetik transformatsiya va "yashil" energetikani joriy etish jarayoni Valiahd shahzoda va Bosh vazir rahbarligi ostida muvaffaqiyatli amalga oshirilmokda.

Ikki mamlakat oʻrtasidagi hamkorlik natijasida energetika samaradorligi boʻyicha muhim yangiliklar va bilimlar almashinuvi yoʻlga qoʻyildi. Bugun bu yoʻnalishda institutsional asoslar ham yaratilgan.

Bularning barchasi Saudiya Arabistoni va Oʻzbekiston oʻrtasida Janobi Oliyarl Prezident Shavkat Mirziyoyevning yetakchiligi ostida shakllangan yaqin va ishonchli hamkorlik samarasidir.

Bugungi kunda dunyodagi koʻplab mamlakatlar energetik xavfsizlik masalasini inqiroz sharoitida hal qilishga majbur boʻlmoqda. Ammo Oʻzbekistonda bu masala ancha oldindan, strategik yondashuv asosida hal etilgan. Shuning uchun ham mamlakat bugungi global oʻzgarishlarga barqaror holda javob bermokda.

Bu esa Prezidentingizning uzoqni koʻra bilishi, qatʼiyati va puxta rejalashtirilgan siyosati natijasidir.



Bilasizmi, ochiq va samimiy aytadigan boʻlsam, men u kishining yetakchiligidan juda taʼsirlanganman. Dunyo strategiya va qarashlar haqida gapiradigan yetakchilar koʻp. Lekin bu gʻoyalarni amalga oshiradigan, ularni real natijaga aylantiradigan yetakchilar juda kam.

Janobi Oliyarl Prezident Shavkat Mirziyoyev aynan shunday yetakchi. U kishi nafaqat strategiya belgilaydi, balki uni hayotga tatbiq etadi, natijaga erishadi va bu jarayonga shaxsan masʼuliyat bilan yondashadi.

Eng katta ustunligi egalik hissi va amaliy yondashuvidir. U kishi faqat reja tuzib qolmaydi, balki uni toʻliq amalga oshirishga erishadi. Shu bilan birga, nafaqat mamlakat yoki mintaqqa, balki xalqaro hamjamiyat uchun ham kuchli namuna boʻlib kelmokda.

Bugun bir buni amalda koʻrib turibmiz. Ilgari Oʻzbekistonga investorlarni jalb qilish juda qiyin edi. Koʻplab davlatlardan investorlar deyarli kelmasdi.

Hozir esa vaziyat mutlaqo oʻzgargan. Bugun butun dunyodan sifatli va yirik investorlar Oʻzbekistonga kelmokda. Bu katta mehnat, izchi islohotlar va qatʼiy siyosiy iroda natijasidir.

Shaffoflikni taʼminlash, institutsional islohotlar, meʼyoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash – bularning barchasi bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Va eng muhimi, bu jarayonlar ortida haqiqiy qatʼiyat va amaliy harakat turibdi.

Bugun xalqaro anjumanlarda ham buni

yaqqol koʻrish mumkin. Biz ayni paytda ishtirok etayotgan tadbirda ham dunyoning turli burchaklaridan kelgan ishtirokchilarni koʻrib turibmiz.

Yaqin kunlarda boʻlib oʻtadigan investitsiya forumida ham bu yanada yaqqol namoyon boʻladi. Ishonchim komikli, u yerda siz dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan yetakchi kompaniyalar va investorlarni koʻrasiz.

Bu Oʻzbekistonning qanday oʻzgartgani, qanday imkoniyatlar ochilganini koʻrsatadigan eng aniq dalildir.

Men bir narsani alohida taʼkidlamoqchiman. Oʻzbekiston har qanday investormas, balki jiddiy, uzoq muddatli, masʼuliyatli va sheriklikka tayyorlarinigina qabul qiladi.

Bu yerda "kelib-ketadigan" sarmoyadorlar uchun sharoit yaratilmaydi. Uzoq muddatli, oʻzaro manfaatli va barqaror hamkorlik qadrlanadi.

Bunday yondashuv natijasida sifatli investorlar kelmokda va ular oʻz sarmoyasidan munosib natija olmoqda. Prezident Janobi Oliyarlarga alohida rahmat aytish kerak. U kishi juda koʻp mamlakatlarda hali kuzatilgan darajadagi islohotlarni amalga oshirdi.

Markaziy Osiyoga qarang. U kishi qoʻshni davlatlar bilan munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Koʻplab kelishmovchiliklarni hal qilishga xizmat qildi va mintaqada oʻzaro ishonch va hamkorlik muhitini shakllantirdi.

Bugun Markaziy Osiyo mamlakatlari oʻrtasidagi yaqinlik va hamjihatlik – bu ham kuchli siyosiy iroda va yetakchilik natijasi.

Nega baʼzi davlatlar bunday tezlikka erisha olmayapti? Chunki bu yerda faqat rahbarlik emas, balki yetuk strategik fikrlash va amaliy harakat uygʻunligi mavjud.

Prezident Janobi Oliyarl ana shu uygʻunlikni taʼminlay olgan yetakchi. Shuning uchun ham bugun koʻplab davlatlar

va xalqaro doiralrda Oʻzbekistondagi oʻzgarishlarga katta qiziqish bilan qaramoqda.

Xitoy, Shveysariya, Amerika Qoʻshma Shtatlari kabi boshqa koʻplab mamlakatlarda boʻldim. Hamma joyda bir narsani koʻrdim. Odamlar Oʻzbekiston haqida eshitgan, qiziqish bildirmoqda va bu mamlakatni yaqindan tanishni istayapti.

Oʻzbekiston bugun dunyodagi eng yorqin transformatsiya misollaridan biriga aylandi. Va bu, albatta, Prezident Janobi Oliyarlning yetakchiligi va xalqning qoʻllab-quvvatlashi natijasidir.

Shu bilan birga, men bir muhim jihatni alohida taʼkidlamoqchiman: bu yutuqlar ortida buyuk xalq turibdi. Yoshlar mamlakatning eng katta boyligi hisoblanadi. Ular bilimga chanqoq, oʻzgarishlarga tayyor va yuqori maqsadlarga intilmoqda. Bu esa kelajak uchun yanada katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Biz esa Saudiya Arabistoni va Saudiya biznes kengashi sifatida, shuningdek, "ACWA" va "Vision Invest" kompaniyalari orqali, Oʻzbekistonda turli infratuzilma loyihalariga sarmoya kiritmoqdamiz.

Ushbu loyihalar qatnashdaga aeroportlar, tibbiyot muassasalari, jumladan, Fargʻonadagi shifoxona, shuningdek, suv taʼminoti, suvni qayta ishlash, markazlashtirilgan sovitsiv va itish tizimlari kabi yirik tashabbuslar bor.

Bundan tashqari, koʻchmas mulk, turizm va ishlab chiqarish sohaslarida ham faol ish olib borilmoqda. Biz Oʻzbekistonga zamonaviy texnologiyalar va yuqori sifatli ishlab chiqarish yechimlarini olib kirmoqdamiz.

Ayrim kompaniyalar bu yerda mahalliy korxonalarni sotib olib, nou-xau va zamonaviy texnologiyalarni joriy etmoqda.

Bizning maqsadimiz Oʻzbekistonni faqat isteʼmol bozori sifatida emas, balki mintaqaviy markazga aylantirishdir. Yaʼni bu

Mamlakatimizda 2026-yil yakuniga qadar 114 MVt ishlab chiqarish quvvatlarini foydalanishga topshirish va 7,1 milliard kVt-soat elektr energiyasini ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

OʻZA.

Tadbir

SENATORLAR
VA YOSHLAR
MULOQOTI

Oliy Majlis
Senatining Xalqaro
munosabatlar, tashqi
iqtisodiy aloqalar, xorijiy
investitsiyalar va turizm
masalalari qo'mitasi
a'zolari Toshkent
davlat iqtisodiyot
universitetining
iqtidorli talabalari, yosh
tadqiqotchilar hamda
professor-o'qituvchilari
bilan uchrashuv
o'tkazdi.

Unda ishtirokchilarga
Senatning faoliyati,
konstitutsiyaviy vakolatlari,
qonun ijodkorligi jarayoni,
shuningdek, nazorat-tahlil
funksiyalari haqida batafsil
ma'lumot berildi.

Ta'kidlanganidek, bunday
muloqotlar yoshlarning
parlament faoliyatiga qiziqishini
oshirish, siyosiy-huquqiy
bilimini kengaytirish hamda
faol fuqarolik pozitsiyasini
shakllantirishda muhim
ahamiyat kasb etadi.

Muloqotda talabalar o'z fikr
va takliflarini bildirib, qiziqirgan
savollariga senatorlardan
atroficha javob olishdi.

“Xalq so'zi”.

ISLOHOTLAR SAMARASI YURTDOSHLARIMIZ
HAYOTIDA AKS ETYAPTI

Bugun O'zbekiston taraqqiyoti yangi, mas'uliyatli bosqichga qadam qo'ydi. Endi islohotlarga alohida-alohida emas, balki bir-biri bilan chambarchas bog'liq yagona tizim sifatida qarash vaqti keldi. Chunki hayotning o'zi shuni ko'rsatmoqda: iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, energetika yoki suv xo'jaligi – bularning birortasi alohida rivojlana olmaydi.

Aks sado

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig'ilishidagi nutqi aynan shu haqiqatni yana bir bor ochib berdi. So'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyoti 50 milliard dollardan 147 milliard dollarga yetgani, energetika sohasida ishlab chiqarish hajmi 1,5 barobar oshgani – shunchaki raqamlar emas. Ular ortida odamlar hayotidagi o'zgarishlar, yangi ish o'rinlari, yaxshilangan sharoitlar namoyon bo'ladi.

Bugun barqaror iqtisodiyot – bu yangi maktablar, zamonaviy shifoxonalar, ta'mirlangan yo'llar va aholiga yetkazib berilayotgan toza ichimlik suvi, degani. Rivojlangan transport – bu fermer uchun bozorga tez yetib borish, tadbirkor uchun xarajatni kamaytirish, oddiy inson uchun esa qulaylik demak. Energetikadagi barqarorlik butun iqtisodiyotning yuragi hisoblanadi.

Shu bilan birga, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi islohotlar – eng insonparvar yo'nalish. Chunki sifati ta'lim kelajakni, sifati tibbiyot esa bugungi hayotni asraydi. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni aynan shu sohalariga joriy etish orqali xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati paydo bo'lmoqda.

Parlament oldida ham katta vazifalar turibdi. Har bir qabul qilinayotgan qaror ortida inson taqdiri turganini unutmasligimiz kerak.

Bugun byudjet qo'llab-quvvatlovi, moliya tizimi, transport, energetika, suv ta'minoti,



qishloq xo'jaligi, ta'lim, tibbiyot va raqamli rivojlanish bular turli sohalar emas, balki bitta zanjirning bog'linlaridir. Ularning barchasi bitta maqsadga xizmat qiladi: inson qadrini ulug'lash va aholi farovonligini oshirish.

Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan 12 milliard dollarlik yangi dastur ham aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. Bu mablag'lar orqali kambag'allikni qisqartirish, zamonaviy infratuzilma yaratish, inson kapitalini rivojlantirishga erishish ko'zda tutilgan.

Energetika sohasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish – bugungi kun talabi. Chunki kelajak iqtisodiyoti aynan energiya samaradorligiga tayanadi.

Eng muhimi, biz bir haqiqatni unutmasligimiz kerak: har bir loyiha ortida inson bor. Maktabga shoshayotgan bola, shifoxonaga murojaat qilgan bemor, suvga muhtoj qishloq, elektr kutayotgan xonadon, mahsulotini bozorga olib chiqayotgan fermer bor.

Shuning uchun islohotlar samarasi odamlar hayotidagi o'zgarishlar bilan baholanmoqda. Shu bois Yangi O'zbekiston siyosati haqiqatan ham xalqchil, adolati va samarali ekanini xalqaro ekspertlar, keng jamoatchilik e'tirof etayotir.

Erkin GADOYEV,
Oliy Majlis Senatining Byudjet va
iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi.

TADBIRKORLAR HUQUQIY HIMOYASI
TAKOMILLASHTIRILMOQDA

Ijtimoiy yo'naltirilgan zamonaviy bozor iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlik nihoyatda muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda uning salmog'i mamlakatimizdagi jami korxonalarning taxminan 92 foizini tashkil etadi, bandlikning qariyb 75 foizini ta'minlaydi, yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'pini shakllantiradi.

Mushohada

Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimi soddalashtirildi, bir necha turdagi soliqlarni to'lash o'rniga kichik biznesni yagona soliq to'lovi shaklidagi soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi joriy etildi, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishni ta'minlash borasidagi huquqiy normalar mustahkamlandi. Shu bilan birga, ularning xo'jalik faoliyatiga nazorat qiluvchi idoralarning aralashuvini keskin qisqartirish choralari ko'ridi.

Prezidentimizning sohaga oid qator farmon va qarorlari mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi izchil takomillashib borayotganining yorqin namunasidir.

Jumladan, Prezidentimizning 2026-yil 17-apreldagi farmoniga ko'ra shu yil 1-iyuldan boshlab tekshiruvlar va nazorat tadbiri hisoblanmaydigan muloqotlar natijasi bo'yicha davlat xizmatchisi xatti-harakatlariga baho berish, tekshirish huquqi bo'lmagan yoki tekshiruvga chiqishi belgilanmagan nazoratchi haqida real vaqt rejimida tadbirkorni xabardor qilish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini beruvchi maxsus guvohnomalarining elektron shaklini yuritish joriy etiladi. Shuningdek, tekshirish o'tkazish tartibiga rioya qilmaslik holatlarini avtomatik tarzda aniqlash tizimi

ham ishga tushirildi.

2026-yil 1-avgustdan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar va profilaktika tadbirlari ro'yxatini shakllantirishni, nazorat tadbiri hisoblanmaydigan muloqotlarni hisobga olishni ta'minlovchi “Biznes himoya” QR-kodi ishga tushirildi.

Nazorat qiluvchi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar mansabdor shaxslari va xodimlari nomidan yoki o'zining xizmat mavqeidan foydalangan holda tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritadigan binoga nazorat yoki profilaktika tadbirini o'tkazish maqsadisiz tashrif buyurishi yoxud tadbirkorlik subyektni boshqa joyga chaqirishi nazorat tadbiri hisoblanmaydigan muloqot sifatida baholalanadi.

“Yagona davlat nazorati” axborot tizimiga kiritiladigan ma'lumotlar Biznes-ombudsman va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan doimiy monitoring qilib boriladi.

Ayni bir tadbirkorlik subyekti bilan bir yil davomida ikki va undan ortiq marotaba assosiz muloqotga kirishgan davlat xizmatchisiga davlat organining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan



xizmat tekshiruvini o'tkaziladi. Mazkur tadbirkorlik subyekti o'tkaziladigan nazorat tadbirlarida oxirgi muloqot qayd etilgan sanadan e'tiboran o'n ikki oy davomida ishtirok etishga yo'l qo'ylmaydi. Ushbu taqiqqa rioya etmagan holat esa tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish tartibini buzish hisoblanadi.

“Yagona davlat nazorati” axborot tizimidan ro'yxatdan o'tmagan yoki tekshiruv o'tkazishga asos bo'luvchi hujjatlarini tizimga kiritmagan yoxud maxsus guvohnomaga ega bo'lmagan nazorat qiluvchi organing xodimi tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkazilgan tekshiruvlar noqonuniy hisoblanadi.

Shuningdek, farmonda 2026-yil 1-sentabrga qadar “Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida”gi qonun loyihasini qayta ishlash, shuningdek, Biznes-ombudsman devonining faoliyatini qayta ko'rib chiqish va uning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy uslublarni, jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalarini keng tatbiq etish choralari ko'rish kabi tadbirlar ham belgilangan.

Sirasini aytganda, mazkur farmon tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni cheklash orqali ishlalarni muhitini yanada rivojlantirishga, pirovardida ularning sonini va faoliyati samaradorligini oshirishga, ishlab chiqarish ko'lami, mahsulot hajmi va sifatini yuksaltirishga, aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kobol TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining Byudjet va
iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi
o'rinbosari.

O'zbekiston – Yaponiya:

PARLAMENTLARARO MUNOSABATLAR
YANADA MUSTAHKAMLANADI

Yaponiya parlament vakillar palatasi a'zosi, tashqi ishlar vazirining parlamentar o'rinbosari Arfiya Eri boshchiligidagi delegatsiyasining O'zbekistonga tashrifi doirasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “O'zbekiston – Yaponiya” parlamentlararo forumining beshinchi yig'ilishi o'tkazildi.

Forum

Unda har ikki tomon deputatlarining parlamentlararo aloqalarining buguni va istiqbollari haqidagi axborotlari eshitildi.

O'zbekiston – Yaponiya munosabatlarining hozirgi holati va uni rivojlantirish istiqbollari, xususan, oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosi ustidan parlament nazoratini olib borish, barcha yo'nalishda parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish, qonun ijodkorligi sohasida o'zaro tajriba almashishni faollashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tomonlar ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda davlat rahbarlarining sa'y-harakatlari bilan O'zbekiston – Yaponiya o'rtasidagi siyosiy muloqot barqaror va izchil rivojlanib, o'zaro hamkorlik sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Oliy darajadagi kelishuvlar samarali amalga oshirilib, parlamentlar o'rtasida sermahsul aloqalar yo'lga qo'yilgan.

Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari R. Hakimov forum ishtirokchilariga Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizda amalga

oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar haqida ma'lumot berdi.

O'z navbatida, Arfiya Eri forumni yuqori darajada tashkil etganligi uchun O'zbekistonga minnatdorlik bildirib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan faol, ochiq va konstruktiv tashqi siyosat, keng ko'lami islohotlar va ularning natijalarini yuqori baholadi.

– Yaponiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar chuqur tarixiy ildizlarga ega. Ana shu boy va uzoq yillik aloqalarga tayangan holda men tashqi ishlar vazirining parlamentar o'rinbosari hamda deputat sifatida mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash va rivojlantirishga o'z hissamni qo'shaman, – dedi A. Eri.

Yaponiya parlamentining O'zbekiston bilan do'stlik ligasi Ijroiya qo'mitasi raisi Keysuke Suzuki esa Yaponiya O'zbekistondagi Osiyodagi strategik hamkor davlat sifatida bilishi va o'zaro aloqalarni kengaytirishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi.

– Bugungi kunda O'zbekiston – Yaponiya munosabatlari sifat jihatdan mutlaqo yangi bosqichga chiqib, ko'plab sohalarida hamkorlik aloqalari jadal rivojlanib bormoqda. Mazkur forum, albatta, kelgusidagi sheriklikni yanada kengaytirish uchun yangi bosqichni boshlab beradi, – dedi K. Suzuki.

Yig'ilishda savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, “yashil” energiya va ta'lim sohalarini rivojlantirish, axborot texnologiyalari, tadbirkorlik va sun'iy intellekt yo'nalishlarida hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha qator takliflar ilgari surildi. Ushbu tashabbuslar yangicha mazmun bilan boyitilishi urg'ulandi.

Tomonlar O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishda parlamentarlar muhim o'rin tutishini, mazkur forum esa parlamentlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish, davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va siyosiy muloqotni chuqurlashtirishga xizmat qilishini alohida ta'kidladi.

Forum yakunida ikki davlat parlamentlari o'rtasidagi muloqot va hamkorlikni tizimli davom ettirishga kelishib olindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Matbuot xizmati.

Deputatlar munozaralarida
qanday masalalarni ko'tardi?

Qonun loyihasiga mas'ul deputat Muqaddasxon Ahmedovanning aytishicha, mazkur hujjat milliy sifat infratuzilmasining boshqaruv modelini yaratishga, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan.

– Qonun loyihasi fraksiyamiz yig'ilishida obdan muhokamadan o'tkazilib, uni ikkinchi o'qishga tayyorlash davomida deputatlarimiz tomonidan berilgan takliflar hujjat matnida aks etgani alohida e'tirof qilindi, – deydi deputat. – Aytish joizki, qonun loyihasining qabul qilinishi mazkur sohalarida qo'llaniladigan ayrim talablar hamda atamalarni Jahon savdo tashkilotining qoidalar va normalariga muvofiqlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Fraksiya a'zolari “O'zbekiston



Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga davlat chegarasini qo'riqlash hamda himoya qilishni yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasini ham ko'rib chiqdi.

Munozaralar davomida deputatlar mazkur hujjatning aholi tinchligi, mamlakatimiz xavfsizligi, iqtisodiy barqarorligini mustahkam himoya qilish choralari yanada kuchaytirishga qaratilganini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatladi.

Sudgacha soddalashtirilgan
tizim yanada rivojlantirildi

Ma'lumki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari o'tgan haftada xalq bilan yaqindan muloqot qilish, muammolarini o'rganish, ularga ijobiy yechim topish maqsadida hududlarda bo'ldi.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab ushbu o'rganish yakunlari muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, deputatlar saylovchilar bilan samimiy muloqot uyushtirib, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Aholi qonunchilikdagi so'nggi o'zgarishlardan xabardor qilinib, bu borada yangi taklif-tashabbuslari o'rganildi. Yoshlar bilan ochiq muloqotlar tashkil etildi.

Shu bilan birga, partiyaning dasturiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tarixiy obidalarining bugungi holati, turizm rivoji masalalariga e'tibor qaratildi. Yana bir muhim masala: yoshlar ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik hamda insonparvarlik ruhida tarbiyalash, maktablarda ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida joriy qilingan tarbiya fanining o'qitilish jarayonlari bilan tanishildi.

Fraksiya a'zolari okruglardagi faoliyati davomida jami 318 ta obyektga bo'ldi. Joylarda aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilinib, 318 ta uchrashuv o'tkazildi. 200 nafardan ortiq tadbirkorlar bilan bevosita muloqotlar tashkil etildi.

Yig'ilishda bu boradagi ishlarni yanada faollashtirish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Shundan so'ng “Nizosiz ishlarni hal etish tartib-taomillari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi. Unda sudlarning BHMning bir ming baravarigacha bo'lgan nizosiz ishlarini notariuslar tomonidan ko'rib chiqilishi taklif etilyapti. Chunki notariuslarning ijro xatari sud buyruqlari bilan teng yundik kuchga ega bo'lgan ijro hujjati hisoblanadi va ularning ijro etilishi majburiy.

Fraksiya a'zosi Davron Aripov ushbu qonun loyihasiga munosabat bildirib, bundan maqsad sudgacha soddalashtirilgan tizimni yanada rivojlantirish ekanini va notariuslarga berilayotgan bu ishlar, asosan, komunal to'lovlar bilan bog'liqligini ta'kidladi. Chunki bugungi kunda

“Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi kommunal tashkilotlarining bazalariga integratsiya qilingan va notariuslar tomonidan ko'chmas mulkka oid bitimlarni tasdiqlashda tabiiy gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi, chiqindilar bo'yicha qarzdorlikni onlayn tekshirish yo'lga qo'yilgan.

Muhokamalardan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

Nizosiz ishlarni hal etishda
muhim tartib-taomillar

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan taqdimotda belgilab berilgan ustuvor vazifalar haqida so'z yuritildi.

Deputatlar so'nggi yillarda mamlakatimizda aholiga malakali va

Fraksiya a'zosi Shokirjon Ahmedov ish beruvchilarga nisbatan belgilanayotgan jarimalar kimlarga tatbiq etilishi va ularning amaldagi qo'llanilishi yuzasidan aniqlik kiritishni so'radi. Qonun tashabbuskorlari esa yangi normalarga muvofiq fuqarolar ham ish beruvchi sifatida qatnashishi imkonligini va javobgarlik shu doirada belgilanishini izohladi.

Ish haqini kechiktirganlik uchun kompensatsiya to'lash tartibi ham muhokamar markazida bo'ldi. Deputat Anvarxon Temirov ayrim sohalarida ish haqini hisoblash jarayoni bir necha kun talab qilishini, shu bois yangi norma tadbirkorlarga qo'shimcha qiyinchilik tug'dirmasligi kerakligini ta'kidladi. Mutasaddirlar esa kompensatsiya faqat qonunda belgilangan muddatlar buzilgan taqdirdagina hisoblanishini, shu orqali tadbirkorlar manfaatlarini ham inobatga olinayotganini qayd etdi.

Yig'ilishda fraksiya faoliyatiga tegishli, xususan, deputatlarning joylarda maktabgacha ta'lim muassasalaridagi texnika xavfsizligi, bolalarning oziq-ovqat ta'minoti, xavfsizligi masalalarini o'rganishi va uning natijalari ham muhokama qilindi.

Deputatlar aniqlangan muammolar – texnika xavfsizligi, oziq-ovqat ta'minoti, kadrlar yetishmovchiligi va infratuzilmaning ahvoli qoniqsiz ekanini qayd etdi. Ayniqsa, chekka hududlardagi bog'chalarida bu muammolar tizimli tus olgani ta'kidlandi. Fraksiya a'zolari fikriga ko'ra, mazkur masalalarni mahalliy darajada hal qilish yetarli emas va kompleks yondashuv talab etiladi. Shu munosabat bilan navbatdagi “Hukumat soati”da mas'ul vazirning hisobotini eshitish rejalashtirildi.

Kun tartibidagi barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Milliy qonunchilik
xalqaro standartlarga
muvofiqlashtirildi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida qator dolzarb masalalar muhokama qilindi. Xususan, texnik jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda savdo va sanoat sohasini rivojlantirish, ichki bozorda ochiq hamda adolatlil raqobat muhitini ta'minlash, texnik jihatdan tartibga solish, muvofiqlikni baholash hamda mahsulotlar ustidan nazorat tartib-taomillarini Jahon savdo tashkiloti

Qonun loyihasi bilan Fuqarolik protsessual va Iqtisodiy protsessual kodekslaridagi sud buyrug'i tartibida ko'riladigan ayrim nizosiz talablarga oid ishlarining doirasi qayta ko'rib chiqilmoqda.

– Loyihada nazarda tutilayotgan normalar sud tizimi samaradorligini oshirish, nizosiz talablarni hal etish tartib-taomillarini soddalashtirish hamda notarial xizmatlar qamrovi

va sifatini oshirishga qaratilgan, – deydi deputat Muhammadjon Valiyev. – Mazkur hujjat sudlarning ish yuklamasini kamaytirish, nizosiz talablarni tasdiqlash va ijroga qaratish mexanizmlarini soddalashtirishga xizmat qiladi.

Yig'ilishda qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Dolzarb masalalar
muhokamasi

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida mehnat munosabatlari takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi. Unga ko'ra, amaldagi qonunchilikka qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Muhokamalarda ta'kidlanganidek, qonun loyihasi mehnat munosabatlari rasmilaylashtirishni soddalashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda xodimlar huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan.

Fraksiya rahbari Ulug'bek Inoyatov mehnat tizimining xalqaro standartlarga moslashtirishi inson qadrini yuksaltirishga xizmat qilayotganini ta'kidladi.

– Bugungi kunda mehnat tizimini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish jarayoni inson qadrini ulug'lashga xizmat qilayotganini yana bir bor ko'rib turibmiz. Bu qonun loyihasi bizning elektoratimiz manfaatlariga ham bevosita daxldor, – dedi fraksiya rahbari.



qoidalariga muvofiqlashtirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qonun loyihasi bilan texnik jihatdan tartibga solishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, sohadagi ortiqcha ma'muriy tartib-taomillar hamda eskirgan tartibga solish mexanizmlarini bartaraf etish, ularni xalqaro standartlar talabari bilan uyg'unlashtirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, “Metrologiya to'g'risida”, “Standartlashtirish to'g'risida”, “Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida” hamda “Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risida”gi qonunlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, milliy sifat infratuzilmasini ilg'or xorijiy tajriba asosida kompleks rivojlantirish ko'zda tutilmoqda.

– Qonun loyihasi bugungi kunda dolzarb bo'lib, uning qabul qilinishi texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi, – deydi fraksiya a'zosi Gulchehra Tojiboyeva.

Qizg'in muhokamalardan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

“Xalq so'zi”.

Biz va jahon

MALAYZIYA QIROLICHASI O‘ZBEKISTONDA

3 may kuni Malayziya Qirolichasi Raja Zarita Sofiya Toshkentga tashrif buyirdi.

Malayziya texnologiya universitetining faxriy raisi sifatida tashrif buyurgan Qirolicha Raja Zarita Sofiyaning xizmat safari “Bernama”, “The Star”, “New Straits Times”, “Astro Awani”, “The Sun” kabi Janubi-Sharqiy Osiyodagi yetakchi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy sahifalarda keng yoritilmoqda.

Maqolalarda qayd etilishicha, Malayziya Qirolichasi 3 may kuni O‘zbekistonga yetib kelgan. Oliy darajadagi mehmonni O‘zbekiston maktabgacha va maktab ta’limi vaziri E‘zozxon Karimova hamda tashqi ishlar vazirining birinchi o‘rinbosari Bahromjon Aloyev kutib oldi.

Tashrif davomida Qirolicha O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida bo‘lib o‘tadigan “Islom sivilizatsiyasida ilmiy an‘ana: manbalar, dolzarb masalalar va salohiyat” mavzuidagi ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etadi.

Shu bilan birga, oliy darajadagi mehmon mamlakatimizning boy islomiy tarixi va madaniyati bilan yaqindan tanishish maqsadida Samarqand shahriga boradi.

Malayziyaning musulmon aholisi tomonidan alohida hurmat va ehtirom qilinadigan manzil hisoblangan Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasiga safar dasturda muhim o‘rin egallaydi.

Malayziya Qirolichasi Raja Zarit Sofiyaning O‘zbekistonga tashrifi ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro birodarlik va hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

“Dunyo” AA.
Kuala-Lumpur

O‘zbekiston – Turkiya:
KONSTITUTSIYAVIY
ODIL SUDLOV SOHASIDAGI
IZCHIL ALOQALAR

O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi raisi Mirzo-Ulug‘bek
Abdusalomov Turkiya Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi prezidenti Qodir
O‘zkaya bilan uchrashdi.

Muloqot

Muloqotda ta’kidlanganidek, ikki mamlakat strategik hamkor davlatlar bo‘lish bilan birga, asrlar davomida sinovdan o‘tgan mustarak tarix, madaniyat va qardoshlik rishtalari bilan bog‘langan xalqlardir. Keyingi yillarda o‘zaro aloqalar har jihatdan yangi mazmun va yangi ruh bilan boyib borayotgi. Bunday sa’y-harakatlar nafaqat iqtisodiy hamda siyosiy sohalar, balki huquqiy davlatchilik va konstitutsiyaviy taraqqiyot yo‘lida ham o‘z samarasini ko‘rsatmoqda.

Uchrashuvda konstitutsiyaviy odil sudlov sohasidagi hamkorlik yildan-yilga rivojlanib borayotgani, sudylar hamda mutaxassislar o‘rtasida samarali muloqot va tajriba almashish yo‘lga qo‘yilgani natijasida ko‘plab qo‘shma tashabbus hamda amaliy loyihalar uchun mustahkam poydevor yaratayotgani aytiladi.

Turkiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi prezidenti Qodir O‘zkaya bo‘shchiligidagi delegatsiyaning mamlakatimizga tashrifi 8 mayga qadar davom etib, birgalikda qator tadbirlar o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

«Xalq so‘zi».

ILM-FAN, TA’LIM, SANOAT VA INVESTITSIYANI
BIRLASHTIRUVCHI MAYDON

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida innovatsiya, startap va venchur moliyalashtirish tushunchalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi texnologiyalarni bozorga olib chiqish, raqobatbardosh mahsulotlar yaratish hamda iqtisodiy o‘rinishni ta’minlashda startaplar alohida o‘rin tutadi.

Startaplar, odatda, cheklangan resurslar bilan ish boshlaydi. Shu bois ular yakka holda muvaffaqiyatga erishishi qiyin. Ularning rivojlanishi uchun universitetlar, ilmiy tadqiqot markazlari, investorlar, akseleratorlar, inkubatorlar, davlat tashkilotlari va yirik korporatsiyalar bilan samarali hamkorlik zarur.

Nuqtai nazar

Barqaror biznes modeli

Mamlakatimizda mazkur yo‘nalish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Jumladan, oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini transformatsiya qilishga qaratilgan islohotlar “5T” tamoyili –ta’lim, tarbiya, tadqiqot, tijoratlashtirish hamda tizimli takomillashtirish asosida amalga oshirilmoqda. Bu esa universitetlarni ta’lim muassasalari bilan birga, ilmiy-innovatsion va iqtisodiy rivojlanish markaziga aylantirishni ko‘zda tutadi. Aynan shunday hamkorlik muhiti “innovatsion ekotizim” deb ataladi. U startaplarga g‘oyani mahsulotga aylantirish, bozorga chiqish, moliya jalb qilish va barqaror biznes modelini shakllantirish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, London, Vilyus, Silikon vodiysi kabi innovatsion markazlarda startaplar muvaffaqiyati tasodifiy emas. Bu yerlarda tadbirkorlar, investorlar, universitetlar va davlat institutlari o‘rtasida tizimli aloqa yo‘lga qo‘yilgan. Natijada ish o‘rinlari yaratiladi, ilmiy g‘oyalari tijoratlashadi va iqtisodiyotda yuqori qo‘shimcha qiymat paydo bo‘ladi.

Startap ekotizimida moliyalashtirish masalasi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Venchur kapital fondlari, investorlar, davlat grantlari, bank kreditlari va kraudfanding kabi manbalar innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy etishga xizmat



qiladi. Ayniqsa, venchur kapital yuqori xavfga ega, ammo katta o‘rinish salohiyati mavjud bo‘lgan startaplarni qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita hisoblanadi. Mazkur jarayonda universitetlarning o‘rni beqiyos. Oliy ta’lim muassasalari kadr tayyorlash bilan bir qatorda ilmiy ishlanmalar, texnologiyalar transferi hamda startap tashabbuslari orqali innovatsion iqtisodiyotning faol ishtirokchisiga aylanadi. Universitet laboratoriyalari, ilmiy markazlar va texnologiyalarni tijoratlashtirish ofislari startaplar uchun muhim tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Davlatning vazifasi esa qulay huquqiy, moliyaviy hamda institutsional muhit yaratishdan iborat. Soliq imtiyozlari, grant dasturlari, inkubatsion markazlari va innovatsion klasterlar orqali davlat startaplarning shakllanishi hamda o‘rinishiga turtki beradi.

Ilg‘or universitetlar loyihasi

Yangi islohotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda “U10” – global darajadagi ilg‘or universitetlar loyihasi joriy etilmoqda. Uning asosiy maqsadi oliy ta’lim muassasalarini milliy tadqiqot universitetlariga aylantirish

va ular atrofida ilmiy klasterlar tashkil etishdan iborat. Bu kabi klasterlar “universitet – ilmiy tashkilot – sanoat – investor” zanjiri asosida ishlaydi. Toshkent kimyo-texnologiya instituti (TKTI) kabi ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim muassasalari uchun bu yangi imkoniyatlar eishigini ochadi. Ya’ni institut nafaqat bilim berish, balki innovatsiya yaratish va uni tijoratlashtirish markaziga aylanadi.

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida innovatsiya va startaplar

“Yangi islohotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda “U10” – global darajadagi ilg‘or universitetlar loyihasi joriy etilmoqda. Uning asosiy maqsadi oliy ta’lim muassasalarini milliy tadqiqot universitetlariga aylantirish va ular atrofida ilmiy klasterlar tashkil etishdan iborat.”

Startaplar uchun imkoniyatlar maydoni

Bugungi kunda startaplar muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning tashqi resurslarga kirish imkoniyatiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, institut qoshida shakllanayotgan innovatsion muhit startaplar uchun qator imkoniyatlarni taqdim etadi. Jumladan, ilmiy rahbarlik va ustozlik (mentorlik), laboratoriya va tajriba bazasidan foydalanish, sanoat korxonalarini bilan hamkorlik,


KITOB javoningizga
KO‘NGILDAN CHIQQAN SO‘Z

Yozuvchilar uyushmasi homiyligida O‘zbekiston xalq shoiri Husniddin Sharipovning “Tanlangan asarlar”i chop etildi. Kitobdan shoirning xalqimiz tomonidan sevib o‘qib kelinayotgan she’rlari, dostonlari, pyesalari va tarjima asarlari o‘rin olgan.

Ijodkor kitobga so‘z boshi qilib olingan maqolasida “Shoir avvalo o‘zi oshiq, pokiza, fidoyi bo‘lishi, ya’ni o‘zi ham ulug‘layotgan qahramoniga o‘xshab yashashi kerak. Bu oson emas... Shu bois tarix minglab qalamkashdan oqibat natijada faqat bitta-yarimtasiga mangulik kalitini beradi, xolos”, deb yozgandi. Bu so‘zlar

shoirning ijodga naqadar jiddiy qaraganini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham, ko‘ngildan chiqqan so‘z ko‘ngilga yetib boradi. Dil dildoshini topadi.

Adabiyotshunoslar adib ijodida g‘azal va oq she’r, lirika hamda hikoyat, doston va miniatyura, falsafa hamda lutf, qo‘shiq va chaqiriq yonma-yon yashashi haqida, qahramonlarining




xalqona sodda va tagdor tili to‘g‘risida ko‘p yozishgan. Kitobxonlar mazkur to‘plamga kiritilgan asarlarni o‘qib, bunga yana bir bor amin bo‘ladi.

UYG‘OQLIKKA CHORLOV

Shoir va publitsist Abdurasul Jumaqulning o‘quvchilarga taqdim etilayotgan navbatdagi “Faqat sen” deb nomlangan yangi kitobi ikki bobdan iborat.

Unda muallifning o‘ziga xos mahorati, uslubi yorqin namoyon bo‘lgan she’rlari, nasri va publitsistik asarlari, mehnat faoliyati haqida ustoz adiblar, taniqli ijodkorlarning dil so‘zlari o‘rin olgan.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifasi ko‘ngillarni uyg‘oqlikka chaqirish, ma’naviy ozuqa ulashishdan iborat. Kitob adabiyot ixlosmandlariga zavq-shavq, hayratu hayajon bag‘ishlashiga shubha yo‘q.

“ZAR HAM O‘ZING,
ZARGAR HAM O‘ZING”

O‘zbek matbuotida o‘zining munosib o‘rniga ega taniqli shoir, tarjimon va publitsist Sirojiddin Rauf har bir so‘zni teran his etib, unga o‘ta mas’uliyat bilan yondashadigan hassos ijodkorlar sirasiga kiradi.

U bitiklarida o‘z qarashlari, fikr-mulohazalarini aniq dalillar vositasida badiiy jilo bergan holda bayon etadiki, natijada bu asarlar beixtiyor o‘quvchining ham tasavvurini o‘zgartirib yuboradi.

Binobarin, uning publitsistikasida muayyan dolzarb mavzuning mazmun-mohiyati nihoyat

darajada chuqur ochib berilishi mutaxassis va o‘qirmanlar tomonidan yuksak e’tirof etiladi. Turli yillarda yozilgan maqola, esse, suhbat, taqriz va qaydlardan iborat “Zar ham o‘zing, zargar ham o‘zing” nomli mazkur to‘plam ham muallifning mahoratiga, nechog‘li serqirra ijodkor ekaniga yaqqol dalolat bo‘la oladi.



Kitob O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop qilingan.

«Xalq so‘zi».

Talabalik — yangi imkoniyatlar davri

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Bu sohada amalga oshirilayotgan qator islohotlar yoshlarning sifati bilim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, xotin-qizlar va alohida ta’lim ehtiyojlariga ega shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, jamiyat a’zolarining intellektual salohiyatini oshirish va inson qadri ustuvorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Fikr

Ayni paytda Xalqaro Nordik universitetining maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishida tahsil olarkanman, talaba sifatida ta’lim tizimidagi yangilanishlarining bevosita guvohi bo‘lmoqdaman.

Xususan, Prezident qaroriga muvofiq, abituriyentlarga test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi hamda fanlar ketma-ketligi bir xil bo‘lgan beshtagacha bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tanlovda ishtirok etish huquqi berilgani katta imkoniyatlar eishigini ochdi.

Bugun yoshlarda ilm olish

barobarida, turli ijtimoiy va madaniy faoliyatlar, tanlov va ilmiy loyihalarda ham faol qatnashish imkoniyati paydo bo‘ldi. Xususan, universitetimizda o‘tkazilgan tanlov natijasida “Oltin fond” nomli rektor stipendiyasini qo‘lga kiritganim kelajakka ishonchimni yanada mustahkamladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston yoshlari xalqaro maydonlarda ham yuqori natijalarni qo‘lga kiritayotgani juda quvonarli. So‘nggi yillarda chet tillarni o‘rganishga qiziqish keskin oshdi. 2020-yilda “IELTS” sertifikatidan 5,5

va undan yuqori natija olgan yoshlar soni 10 mingdan sal ko‘proq bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda mazkur ko‘rsatkich 50 mingdan oshgani buning yaqqol isbotidir.

Shu kabi natijalar yoshlarning global maydonlarga chiqish, dunyo ilmiy hamjamiyatiga qo‘shilish va xalqaro ta’lim tizimiga integratsiyalashishga intilayotganini ko‘rsatadi. Boshqa tomondan esa ularning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lib borayotgani ifodasidir. Yoshlarning xalqaro grantlar, stipendiyalar va ilmiy dasturlarda ishtirok etayotgani mamlakatimizning ilmiy va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Inklyuziv ta’lim muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bugun mamlakatimiz maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilmoqda, maxsus pedagoglar tayyorlanyapti, psixologik yordam xizmatlari kengaytirilmoqda. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarga hissa qo‘shish

maqsadida “Inklyuziv kelajak” nomli ijtimoiy tashkilot tuzishga ahd qildik. Mazkur loyiha inklyuziv ta’limni rivojlantirish, psixologik yordam xizmatlarini kengaytirish hamda alohida ehtiyojga ega shaxslarning bandligini ta’minlashda asqatishi muqarrar. Chunki har bir inson jamiyatning ajralmas bo‘lagi, uning taraqqiyoti va ravnaqiga ulush qo‘sha oladigan noyob salohiyat egasidir.

Bugungi universitetlar shunchaki bilim beradigan joy emas. Ular tashabbuskor, yetakchilik qobiliyatiga ega va jamiyat oldidagi mas’uliyatni chuqur his qiladigan yoshlarni tarbiyalayotgan maskanlardir. Navqiron avlod uchun yaratilayotgan bunday sharoitlar mamlakatimizning barqaror rivojlanishi uchun kadrlar tayyorlashga qaratilgan strategiyaning bir qismidir.

Gulsora ABDUQUINDUZOVA,
Xalqaro Nordik universitetining
maxsus pedagogika yo‘nalishi
talabasi.

2016 yilda yurtimizda 3,2 mingta xususiy klinika faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2026 yilda ularning soni 8,7 mingtaga yetishi kutilmoqda.

Xalq so‘zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-542. 23 409 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.



“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni – 20.30 Topshirildi – 23.40

1 2 3 4 5 6